SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (5-jild)

2025

ISSN: 2181-1342 (Online)
Сайт: https://scienceproblems.uz
DOI: 10.47390/SPR1342V5I2Y2025

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

***№ 2 (5) – 2025***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**TOSHKENT-2025**

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY'ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, Oʻzbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori, Oʻzbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo oʻgʻli – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar boʻlimi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod Oʻktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Fargʻona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Joʻraboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Gʻaybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Moʻmin – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

Oʻroqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Koʻchimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov Gʻaybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat Gʻaybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), Oʻzbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Joʻrayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom oʻgʻli — yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot boʻlimi psixologik xizmat boshligʻi.

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Poʻlatovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Boʻtayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Roʻyxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari boʻyicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar roʻyxatiga kiritilgan.

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 2-son (Fevral, 2025). - 630 bet.

**MUNDARIJA**

## 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Matkarimova Sadoqat Maqsudovna*
SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV HUJJATLARINI SAQLASH VA TADQIQ QILISHDAGI XIZMATLARI ........ 13-19

*Matyakubov Xamdam Xamidjanovich*
MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYALARI VA OROLBOʻYI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR OʻRTASIDAGI OʻZARO TAʼSIR VA HAMKORLIK ........ 20-24

*Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin*
TURKISTONDA JADIDLARNING TAʼLIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN ........ 25-29

*Хуррамова Саодат Хабибовна*
ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА ........ 30-37

*Toʻychiyeva Dilnoza Ikrom qizi*
ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI ........ 38-44

*Elboyeva Shaxnoza*
AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR VA BU BORADA OʻZBEKISTON TAJRIBASI ........ 45-50

*Kanimkulov Olimjon, Xikmatova Oʻgʻiloy*
TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BOʻLGAN TARIXI HAQIDA ........ 51-54

*Tojiev Alisher Sultannazirovich*
MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI ........ 55-60

*Bekbayev Bekjon*
XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN ........ 61-67

*Salayev Umrbek Kadambayevich*
JANUBIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA DOIR BAʼZI CHIZGILAR ........ 68-71

*Roʻziyeva Mashxura Abdimuminovna*
LOʻLILAR IJTIMOIY HAYOTINING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 72-78

*Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi*
ICHKI SAVDO QOʻQON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876) ........ 79-84

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Kazakov Olim Sabirovich*
XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSIYALARIDAN FOYDALANISH ........ 85-89

*Исламутдинова Дина Файзрахмановна*
РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ........ 90-98

*Alikulov Mehmonali Salahiddin o‘g‘li*
QISHLOQ XO‘JALIGIGA INVESTITSIYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ XO‘JALIGIGA YO‘NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI ........ 99-106

*Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor*
O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI ........ 107-113

*Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod*
CHO‘L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LARI ........ 114-121

*Aliyarov Olim Abdug‘aparovich*
MULKIY SOLIQQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI ........ 122-132

*Komilov Bakhtiyorjon*
UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA ........ 133-144

*Djumanov Saitmurod Alibekovich*
MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 145-150

*Yariyev Sherzod Shukurjanovich*
DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI ........ 151-155

*Matkarimov Feruz Bekturdiyevich*
MINTAQADA TO‘QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH ........ 156-160

*Xaydarova Durdona, To‘xtayeva Moxinur*
DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ........ 161-166

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Yusubov Jaloliddin Kadamovich*
ABU NASR FOROBIYNING MA’NAVIY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING ZAMONAVIY IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI ........ 167-175

*Nosirxo‘jayeva Gulnora Abduqahhorovna*
FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA’NAVIY YUKSALISH MUAMMOLARI ........ 176-179

*Xoliqov Yunus Ortiqovich*
BAG‘RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSI ........ 180-184

*Berdaliyeva Sevara*
ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB “KUTADGU BILIG” ........ 185-191

*Parpiyev Muhammadjon Tolibovich*
SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQISHINING IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLARI ........ 192-197

*Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi*
IBN ARABIY “VAHDATUL VUJUD” TA’LIMOTINING FALSAFIY ASOSLARI VA AHAMIYATI ........ 198-202

*Ulug‘murodov Elyor Saydulloevich*
ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI ........ 203-206

*Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich*
AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING DIALEKTIK MAZMUNI ........ 207-213

*Xasanov Boburjon Xakimovich*
EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI ........ 214-219

*Shokirov Mubin Rustamovich*
MILLIY O‘ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT ........ 220-225

*Ismoilov Maxammadixon*
HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI ........ 226-230

*Shokirov Murod Rustamovich*
YANGI O‘ZBEKISTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI ........ 231-234

*Hamroyev Saidjon Sanoyevich*
YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASIDA IJTIMOIY ADOLATNING BARQAROR TARAQQIYOTNI TA’MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O‘RNI ........ 235-239

*Sharopov O‘lmasbek Shuhrat o‘g‘li*
ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI (TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI) ........ 240-243

*Ulug‘ov Jasur Nasirdinovich*
INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING IJTIMOIY HAYOTGA TA’SIRI ........ 244-249

*Qodiraliyev Abror Tojimurot o‘g‘li*
BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARI MISOLIDA ........ 250-253

*Ibragimov Kudrat*
XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL DAVLATLARI ........ 254-260

*Oripov Axmadjon Muxammadjonovich*
VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TALQINI ........ 261-267

*Ibragimova Zulayxo Karimbayevna*
RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI VA ASOSIY KOMPONENTLARI ........ 268-274

*Abdullayev A’zam Abdiyevich*
YOSHLARDA IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM XUSUSIYATLARI ........ 275-281

*Ochilov Azimjon Tuxtamishovich*
IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING TARQALISHI ........ 282-285

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

*Raxmanova Sarvinoz Alisherovna*
SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ VA OʻZBEK TILLARI MISOLIDA) ........ 286-289

*Kaxarova Iroda Sidikovna*
MODAL SOʻZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH ........ 290-296

*Babadjanova Nazokat Davronbekovna*
"YUSUF VA ZULAYHO" DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI ........ 297-302

*Sayidova Shakhrizoda Nasrulloyevna*
RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD ALI'S WORK "ULUGʻ SALTANAT" ........ 303-308

*Hatamova Kamola Toshmurod qizi*
TIJORAT HUJJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA ........ 309-316

*Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna*
TERMINOLOGIYANING OʻZBEK VA XORIJIY TILSHUNOSLAR TOMONIDAN OʻRGANILISHI ........ 317-321

*Otajonova Dildor Baxtiyarovna*
SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI ........ 322-326

*Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich*
PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS AMONG THE LANGUAGES ........ 327-331

*Xoshimova Oydina Shuxrat qizi*
OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING OʻRNI VA RANGLAR IFODASI ........ 332-338

*Babayeva Iroda*
THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR STRUCTURE AND MEANING ........ 339-342

*Fozilov Odil Yuldashevich*
USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK LANGUAGE........ 343-346

*Raxmonova Dildora Mirzakarimovna*
JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING "BAXTSIZ KUYOV" DRAMASI MISOLIDA) ........ 347-351

*Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna*
TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI ........ 352-357

*Xamidova Sayyora Nurmatovna*
KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 358-363

*Mengboyev Azizbek Alijon oʻgʻli*
INGLIZ VA OʻZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING CHOGʻISHTIRMA TADQIQI ........ 364-368

*Hayitova Shohida Erkin qizi*
INGLIZ VA OʻZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOGʻISHTIRMA TAHLILI ........ 369-373

*Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi*
SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK MASALASI ........ 374-378

*Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich*
MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY O‘RGANISH: ADABIY UMUMIYLIK VA USLUBIY O‘ZIGA XOSLIGI ........ 379-385

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*Мухитдинова Фирюза*
КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА ........ 386-393

*Uzakova Go‘zal Sharipovna*
HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI ........ 394-403

*Tulaganova Gulchexra, Nurilloyev Shavkat*
INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH ........ 404-414

*Yakubova Iroda Bahramovna*
MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING ASOSIY SHARTLARI ........ 415-419

*Obidov Tolibjon Avezxanovich*
JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI O‘ZARO HAMKORLIK MASALALARI ........ 420-425

*Tuxtashev Sherzod Azimovich*
JINOYAT ISHINI TO‘XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI ........ 426-430

*Maxamatov Maxmud Maxamataminovich*
INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMOYA QILISH MASALALARI ........ 431-436

*Rahmatov Elyor Jumaboyevich*
BOJXONA MA’MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA ISHTIROKI ........ 437-441

*Jumaniyozova Dilfuza Kamolovna*
IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI: XORIJ TAJRIBASI ........ 442-447

*Shermatov Nuriddin*
RAQAMLI ERADA SUN’IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEXNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA ........ 448-455

*Juraeva Asal*
EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS ........ 456-461

*Собиров Саидбек Махмудович*
ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О НЕПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТИ ........ 462-467

*Nurbayev Muzaffar Erkinovich*
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 468-478

*Qudratillayev Jaxongir Zokirjon oʻgʻli*
INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI ........ 479-485

*Xabibullayev Azizillo Lutfullo oʻgʻli*
SUN'IY INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI OʻRTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR ........ 486-491

*Toʻxtayev Oʻktamjon Zarifjon oʻgʻli*
MURAKKAB ASHYOLARNING OʻZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY VA FALSAFIY MOHIYATI ........ 492-500

*Yusupov Oʻktamboy*
KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLARI ........ 501-509

*Murodxonov Muhammadnur*
XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL ASARLARNING OʻRNI ........ 510-518

*Ёкубов Шухратжон, Эргашева Муниса*
МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ ........ 519-523

*Qudratillayev Xazratali Zokirjon oʻgʻli*
JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJIY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI ........ 524-530

*Umarov Abbosjon Asliddin oʻgʻli*
SUGʻURTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI ........ 531-536

*Хайдарова Хилола Анваровна*
ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ ........ 537-542

## 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Ibraximov Sanjar Urunbayevich*
AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI OʻRTASIDAGI OʻZARO BOGʻLIQLIGI ........ 543-547

*Karimov Akramjon Zaynobidinovich*
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA'LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI ........ 548-554

*Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich*
7-9 YOSHLI OʻQUVCHILARNING HARAKAT SIFATLARINI HARAKATLI OʻYINLAR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH ........ 555-561

*Karimov Qayum Mamashayevich*
KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI OʻQITISHDA TARMOQ TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH ........ 562-569

*Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi*
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI ........ 570-576

*Qodirov Azamat Muxriddinovich*
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN O'QISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YO'NALGAN O'QISH MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA ........ 577-582

*Тлеумуратова Абадан Бекбановна*
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ ........ 583-585

*Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich*
TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR ........ 586-592

*Mamaziyayev Oblaberdi*
OLIY TA'LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI ........ 593-598

*Isoqov Murod Madaminjonovich*
YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOIY KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJIY MODELLARI ........ 599-605

*Nasriddinova Hulkar Komiljonovna*
BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI ........ 606-610

*Allayeva Hafiza Rustam qizi*
BOSHLANG'ICH SINFDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI ........ 611-614

*Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna*
AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETINI ISHLASH METODIKASI ........ 615-621

*Xo'jaqulov Ro'zibek Ilhomjon o'g'li*
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI ........ 622-625

*Elova Sitora Axmatkulovna*
QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISH DARAJASI ........ 626-629

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 2 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 25 January 2025
**Accepted:** 1 February 2025
**Published:** 10 Feburary 2025

*Article / Original Paper*

# THEORETICAL AND LEGAL CHARACTERISTICS OF THE INSURANCE INSTITUTE

**Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li**
Independent researcher of
Tashkent State Law University
E-mail: salombek093@gmail.com

**Abstract.** This article analyzes the categories related to the insurance institute and its elements. The purpose of the research is to develop proposals and conclusions aimed at improving the insurance system. The results of this research are applied in scientific activities, lawmaking, law enforcement practice, interpretation and improvement of national legislation.

**Keywords:** insurance system, insurance subject, insurance object, insurance purpose, insurance principles, insurance methods, insurance forms, types and procedures of insurance.

# SUG'URTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI

**Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li,**
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada sug'urta instituti va uning elementlariga oid kategoriyalar tahlil qilingan. Tadqiqot maqsadi sug'urta tizimini takomillashtirishga qaratilgan taklif va xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Mazkur tadqiqot natijalari ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, qonunni qo'llash amaliyotida, milliy qonunchilik normalarini sharhlashda va takomillashtirishda qo'llaniladi.

**Kalit so'zlar:** sug'urta tizimi, sug'urta subyekti, sug'urta obyekti, sug'urta maqsadi, sug'urta prinsiplari, sug'urta usullari, sug'urta shakllari, sug'urta turlari hamda tartibi.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N84

Sug'urta instituti zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u fuqarolar, korxonalar va davlat manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda O'zbekistonda sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va aholining sug'urta madaniyatini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Sug'urta instituti fuqarolik jamiyatining muhim elementlaridan biri bo'lib, u shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy-huquqiy mexanizmlar tizimini o'z ichiga oladi. Sug'urta munosabatlarining rivojlanishi jamiyat iqtisodiy farovonligining muhim omili hisoblanadi.

Bugungi kunda sug'urta institutining nazariy-huquqiy jihatlarini tadqiq etish, uning rivojlanish tendensiyalarini o'rganish va takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash muhim ilmiy vazifalardan biridir. Ushbu maqolada sug'urta institutining nazariy-huquqiy mohiyati, uning asosiy tushunchalari va tamoyillari, shuningdek, rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi.

Mamlakatimizda sugʻurta faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, sugʻurta xizmatlari sifatini oshirish va sugʻurta mahsulotlarini kengaytirish borasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, sugʻurta institutining nazariy-huquqiy asoslarini chuqur oʻrganish, uning mohiyati va ahamiyatini tadqiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.Sugʻurtaning ilk koʻrinishi eramizdan oldingi ikki ming yillikda yashagan Bobil podshohi Hammurapi qonunlarida mavjud boʻlgan. Unga koʻra savdo karvonlarining birortasini yukiga tabiiy hodisalar yoki qaroqchilar hujumi, oʻgʻriliklar natijasida zarar yetkazganda, koʻrilgan zararni oʻrtada toʻlab berish nazarda tutuvchi kelishuv imzolanishi belgilab qoʻyilgan. Keyinchalik eramizning ilk davrlarida avval Gretsiyada, keyin qadimgi Rimda, Hindiston va Misrda turli maqsadlarda tashkil etilgan shu kabi sugʻurta jamiyatlari amal qilgan. Keyinchalik XII-XV asrlarda Florensiya, Venetsiya, Genuyalik savdogarlar birinchi boʻlib dengiz transporti boʻyicha oʻzaro sugʻurtani yoʻlga qoʻyganlar. XIV asrda nemis savdogarlari dengiz sugʻurtasi boʻyicha Ganza ittifoqini tuzishgan[1].

Bizning fikrimizcha, sugʻurta institutining tarixiy ildizlari juda qadimiy davrlarga borib taqalishi, uning insoniyat taraqqiyotidagi oʻrni naqadar muhim ekanligini koʻrsatadi. Ayniqsa, Bobil podshohi Hammurapi qonunlarida sugʻurta munosabatlarining huquqiy tartibga solinishi, oʻsha davrdayoq iqtisodiy xavfsizlikni taʼminlashda sugʻurtaning ahamiyati yuqori boʻlganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, fikrimizcha, qadimgi Gretsiya, Rim, Hindiston va Misr davlatlarida sugʻurta jamiyatlarining faoliyat yuritishi, sugʻurta institutining nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda ham rivojlanganligini koʻrsatadi. Bu esa oʻz navbatida sugʻurta munosabatlarining universal xususiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari qayd etish lozimki, XII-XV asrlarda Florensiya, Venetsiya va Genuya savdogarlari tomonidan dengiz transporti boʻyicha oʻzaro sugʻurtaning yoʻlga qoʻyilishi, sugʻurta institutining tijorat sohasidagi rolini yanada kuchaytirgan. Bu jarayon savdo-sotiq munosabatlarining rivojlanishiga va xalqaro iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Bu esa, XIV asrda nemis savdogarlari tomonidan Ganza ittifoqining tuzilishi, sugʻurta institutining yanada takomillashuviga va xalqaro miqyosda kengayishiga olib kelgan. Bu esa oʻz navbatida zamonaviy sugʻurta tizimining shakllanishiga poydevor boʻlib xizmat qilgan.

Bir guruh olimlar A.V.Vahobov va T.S.Malikovlarning taʼkidiga koʻra sugʻurta fuqarolar va korxonalarning mulkiy va shaxsiy nomulkiy manfaatlarini himoya etuvchi samarali vosita sifatida insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud boʻlgan. Sugʻurta himoya vositasi sifatida pul va kredit tushunchalaridan oldin paydo boʻlishi mumkin. Sugʻurta zaxiralari natura shaklida shakllangan. Bu ancha qiyinchiliklarni keltirib chiqargan. Chunki, zaxiralarni natura shaklida jamgʻarish ularni uzoq muddat saqlash imkoniyatini bermagan. Tovar-pul munosabatlarining paydo boʻlishi sugʻurta zaxiralarini pul koʻrinishida shakllantirishga zamin yaratgan[2].

Bizning fikrimizcha, A.V.Vahobov va T.S.Malikovlarning sugʻurta institutining tarixiy ildizlari haqidagi fikrlari asosli boʻlib, sugʻurta haqiqatan ham insoniyat taraqqiyotining eng qadimgi bosqichlaridan boshlab mavjud boʻlgan. Chunki insonlar doimo oʻz mulki va hayotini turli xavf-xatarlardan himoya qilish ehtiyojini his qilgan.

Olimlarning sugʻurta himoya vositasi sifatida pul va kredit tushunchalaridan oldin paydo boʻlganligi haqidagi fikriga toʻliq qoʻshilamiz. Bu fikrni qadimgi jamiyatlarda mavjud boʻlgan

o‘zaro yordam an’analari, jamoaviy himoya shakllari va tabiiy ofatlar oqibatlarini birgalikda bartaraf etish amaliyoti tasdiqlaydi.

Shuningdek, sug‘urta zaxiralarining dastlab natura shaklida shakllanganligi haqidagi fikrlari ham tarixiy haqiqatni aks ettiradi. Bu davrda oziq-ovqat, qurilish materiallari va boshqa moddiy boyliklar zaxira sifatida jamg‘arilgan bo‘lib, bu haqiqatan ham saqlash va taqsimlash jarayonida qiyinchiliklar tug‘dirgan.

Biz olimlarning tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi sug‘urta tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqqanligi haqidagi xulosasini qo‘llab-quvvatlaymiz. Pul shaklidagi sug‘urta zaxiralari sug‘urta faoliyatini samarali tashkil etish, sug‘urta fondlarini boshqarish va sug‘urta to‘lovlarini amalga oshirishda qulaylik yaratgan.

Bir guruh olimlar B.Sh.Safarov, A.B.Taniyev va I.I.Ayubovlarning fikricha sug‘urta ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi kategoriya sifatida jamiyat shakllanishining ilk davrlarida vujudga kelib, ijtimoiy ishlab chiqarishning ajralmas qismiga aylangan. Sug‘urta tushunchasi mulkning saqlanishiga, tabiiy ofatlar, yong‘in, o‘g‘irlik va iqtisodiy hayotning boshqa ko‘zda tutilmagan xavf-xatarlari natijasida nobud bo‘lishi yoki yo‘qotilishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar. Sug‘urta – bu uning ishtirokchilari o‘rtasida ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan maqsadli sug‘urta fondlarini badallar hisobidan shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan qayta taqsimlash munosabatlari yig‘indisidir[3].

Bizning fikrimizcha, B.Sh.Safarov, A.B.Taniyev va I.I.Ayubovlarning sug‘urta to‘g‘risidagi qarashlari asosli bo‘lib, sug‘urtaning tarixiy ildizlari va uning jamiyat hayotidagi ahamiyatini to‘g‘ri aks ettiradi. Sug‘urtaning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimidagi o‘rni haqidagi fikrlari ilmiy jihatdan asoslangan.

Olimlarning sug‘urta tushunchasiga bergan ta’rifi mazkur institutning asosiy mohiyatini to‘liq ochib beradi. Chunki sug‘urta nafaqat mulkni saqlash, balki turli xil xavf-xatarlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash mexanizmi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, olimlar tomonidan sug‘urta fondlarining shakllanishi va ularning vazifalari bo‘yicha bildirilgan fikrlar ham o‘rinli. Sug‘urta fondlarining badallar hisobidan shakllanishi va zararlarni qoplashga yo‘naltirilishi sug‘urta institutining asosiy funksional xususiyatlarini ifodalaydi.

Ayni paytda, biz olimlarning fikrlariga qo‘shimcha ravishda sug‘urta institutining zamonaviy shakllarini, xususan, raqamli texnologiyalar asosida sug‘urta xizmatlarini rivojlantirish, yangi sug‘urta mahsulotlarini joriy etish va sug‘urta bozorini liberallashtirish masalalariga ham e’tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz.

D.R.Maxmudovning fikricha insoniyat sivilizatsiyasi boshlangan davrdan to bugungi kungacha bir necha ming yillar o‘tgan. Ammo, sug‘urtaning fundamental ilmiy asoslangan tamoyillaridan biri bo‘lgan turli hodisalar ro‘y berishi natijasida ko‘rilgan zararlarni qoplash maqsadida zaxiralarning shakllantirilishi bugungi kunda saqlanib qolgan[4].

Bizning fikrimizcha, D.R.Maxmudovning sug‘urta institutining tarixiy ildizlari va uning asosiy tamoyillari haqidagi qarashlari to‘liq asoslangan. Chunki insoniyat tarixining barcha bosqichlarida turli xil favqulodda hodisalar va tabiiy ofatlar natijasida yuzaga keladigan zararlarni qoplash ehtiyoji mavjud bo‘lgan.

Olimning fikrlariga qo‘shilgan holda aytish mumkinki, sug‘urta zaxiralarini shakllantirish amaliyoti insoniyat sivilizatsiyasi rivojlanishining barcha bosqichlarida muhim

ahamiyat kasb etgan. Bu esa sugʻurta institutining nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni taʼminlashdagi rolini ham tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, D.R.Maxmudovning qarashlarini yanada rivojlantirib, taʼkidlash joizki, zamonaviy sugʻurta tizimi anʼanaviy tamoyillarni saqlab qolgan holda, yangi texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar bilan boyib bormoqda. Bu esa sugʻurta institutining asrlar davomida shakllangan asosiy tamoyillarining hayotiyligini yana bir bor isbotlaydi.

Biroq, biz olimning fikriga qisman qoʻshilmagan holda, sugʻurta zaxiralarini shakllantirish mexanizmlari zamon talablariga mos ravishda takomillashib borayotganligini va bu jarayon doimiy ravishda yangilanib turishini taʼkidlamoqchimiz. Bu esa sugʻurta institutining asosiy tamoyillari zamonaviy sharoitlarga moslashuvchan ekanligidan dalolat beradi.

Yana bir iqtisodchi olim, D.F.Abduturapovaning taʼkidiga koʻra sugʻurta – bu maʼlum bir xavfdan yetkaziladigan zararni qoplashga hamda bu uchun toʻlovni amalga oshirishga rozi boʻlgan bir nechta shaxslarning iqtisodiy munosabatlaridir. Sugʻurta bozorining rivojlanishi, uning mamlakatimizda tutgan oʻrni, sugʻurta jarayonlarini faollashtirish koʻp jihatdan sugʻurta xizmatlarining sifatiga, ayniqsa, sugʻurtalovchilar tomonidan sugʻurta qoplamasining qoplanish holati, mamlakatdagi mavqeyi, aholining sugʻurta madaniyati va ularning sugʻurtaga boʻlgan ishonchi bilan uzviy bogʻliqdir. Mamlakatimizda sugʻurta kompaniyalarining zaif tomonlari asosan, mijozlarning sugʻurtaga nisbatan ishonchining pastligi va kapitallashuvi, kompaniyalar diqqat-eʼtibori mijozga yoʻnaltirilmaganligi bilan bogʻliq. Mijoz bilan oʻzaro aloqalar sust boʻlganligi tufayli sugʻurtalovchilar koʻpincha oʻz mijozlari bilan munosabatlarni rivojlantirish imkoniyatiga ega emaslar[5].

Bizning fikrimizcha, D.F.Abduturapovaning sugʻurta tushunchasiga bergan taʼrifi juda oʻrinli boʻlib, u sugʻurtaning asosiy mohiyatini — xavf-xatarlarni jamoaviy tarzda boshqarish mexanizmini aniq ifodalagan. Bu taʼrif sugʻurtaning ijtimoiy-iqtisodiy tabiatini toʻgʻri aks ettiradi va uning jamiyatdagi rolini tushunishga yordam beradi.

Olimaning sugʻurta bozorining rivojlanishi va uning samaradorligi sugʻurta xizmatlarining sifati bilan bogʻliqligi haqidagi fikriga toʻliq qoʻshilamiz. Haqiqatan ham, sugʻurta kompaniyalarining ishonchliligi, sugʻurta qoplamalarini oʻz vaqtida va adolatli toʻlash amaliyoti sugʻurta bozorining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Shuningdek, D.F.Abduturapovaning mamlakatimizdagi sugʻurta kompaniyalarining zaif tomonlari haqidagi tahlili ham asosli. Biroq, bizning fikrimizcha, bu muammolarning asosiy sababi nafaqat kompaniyalarning faoliyatida, balki umumiy sugʻurta madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligida hamdir.

Olimaning mijozlar bilan oʻzaro munosabatlar borasidagi xulosalariga qisman qoʻshilgan holda, biz bu masalani kengroq koʻrib chiqish lozim deb hisoblaymiz. Bizningcha, zamonaviy raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar sugʻurta kompaniyalariga mijozlar bilan samarali muloqot oʻrnatish imkoniyatlarini yaratmoqda, faqat bu imkoniyatlardan toʻgʻri va oqilona foydalanish zarur.

Bizning fikrimizcha, sugʻurta — bu iqtisodiy munosabatlarning alohida shakli boʻlib, unda sugʻurtalovchi va sugʻurtalanuvchi oʻrtasida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar tizimi orqali turli xavf-xatarlardan himoyalanish mexanizmi yaratiladi. Bu mexanizm orqali bir tomondan sugʻurta kompaniyalari maʼlum bir toʻlov evaziga xavf-xatarlarni oʻz zimmasiga olsa, ikkinchi tomondan sugʻurtalanuvchilar oʻzlarining moliyaviy xavfsizligini taʼminlaydilar.

Sugʻurta institutining mohiyati shundaki, u nafaqat alohida shaxslar yoki tashkilotlarning moliyaviy himoyasini taʼminlaydi, balki iqtisodiyotda investitsion resurslarni shakllantirish va ularni samarali joylashtirish imkoniyatini ham yaratadi. Bu esa oʻz navbatida mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

Bizning qarashimizda, sugʻurta — bu jamiyatning iqtisodiy barqarorligini taʼminlovchi, kutilmagan hodisalar tufayli yuzaga kelishi mumkin boʻlgan moliyaviy yoʻqotishlarni minimallashtiruvchi va shu orqali iqtisodiy subyektlar faoliyatining uzluksizligini taʼminlovchi muhim moliyaviy institutdir.

Shuningdek, sugʻurta — bu murakkab ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi boʻlib, u faqatgina moliyaviy himoyani emas, balki jamiyatda ijtimoiy himoya va barqarorlikni taʼminlashga ham xizmat qiladi. Bu esa sugʻurtaning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatini ham belgilab beradi.

Amaldagi sugʻurta qonunchiligimizga muvofiq sugʻurta faoliyati deganda sugʻurta bozori professional ishtirokchilarining sugʻurtani va qayta sugʻurtani amalga oshirish bilan bogʻliq faoliyati tushuniladi[6].

Xorijiy mamlakatlarda sugʻurta tushunchasi va uning mohiyatiga turlicha yondashuvlar mavjud. Ayniqsa, rivojlangan davlatlarda sugʻurta instituti juda takomillashgan tizim sifatida faoliyat yuritadi.

AQSHda sugʻurta tushunchasi keng qamrovli boʻlib, u “risk management” konsepsiyasi bilan chambarchas bogʻliq. Amerikalik olim R.Merning taʼrifiga koʻra, sugʻurta — bu xavf-xatarlarni boshqarish va moliyaviy yoʻqotishlarni minimallashtirishning kompleks tizimidir. AQSHda sugʻurta nafaqat moliyaviy himoya vositasi, balki investitsiya qilish usuli sifatida ham keng qoʻllaniladi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida, xususan Germaniyada sugʻurta tushunchasi ijtimoiy yoʻnaltirilgan xarakterga ega. Nemis olimi X.Gerberning fikricha, sugʻurta — bu ijtimoiy himoya tizimining ajralmas qismi boʻlib, u fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Germaniyada majburiy tibbiy sugʻurta, pensiya sugʻurtasi va ijtimoiy sugʻurtaning boshqa turlari juda rivojlangan.

Yaponiya tajribasida sugʻurta tushunchasi korporativ madaniyat bilan uzviy bogʻliq. Yaponiyada sugʻurta kompaniyalari “keyretsu” tizimining bir qismi hisoblanadi va ular uzoq muddatli manfaatlarga asoslangan holda faoliyat yuritadi. Yapon olimi T.Yamashironing taʼkidlashicha, sugʻurta — bu uzoq muddatli ishonchga asoslangan moliyaviy himoya tizimidir.

Buyuk Britaniyada sugʻurta tushunchasi tarixan London sugʻurta bozori (Lloyd’s of London) faoliyati bilan bogʻliq. Ingliz olimi P.Dikinsonning fikricha, sugʻurta — bu xavf-xatarlarni taqsimlash va boshqarishning professional tizimi boʻlib, u moliyaviy barqarorlikni taʼminlashning asosiy vositalaridan biridir.

Skandinaviya mamlakatlarida sugʻurta tushunchasi “farovonlik davlati” konsepsiyasi bilan bogʻliq. Bu mamlakatlarda sugʻurta nafaqat xususiy sektor, balki davlat tomonidan ham keng qoʻllaniladigan ijtimoiy himoya vositasi hisoblanadi.

Singapur va Janubiy Koreya kabi Osiyo mamlakatlarida sugʻurta tushunchasi innovatsion yondashuvlar bilan boyitilgan. Bu mamlakatlarda raqamli sugʻurta xizmatlari, mikrosugʻurta va yangi sugʻurta mahsulotlari faol rivojlanmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, sugʻurta, sugʻurta faoliyati, sugʻurta xizmati, sugʻurtaning xususiyatlari va sugʻurta munosabatlari rivojlanishiga taʼsir etuvchi omillar toʻgʻrisida quyidagi xulosalarga kelindi:

Sugʻurta — bu murakkab ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi boʻlib, uning asosiy mohiyati turli xavf-xatarlarni boshqarish va moliyaviy yoʻqotishlarni qoplash mexanizmi orqali jamiyat iqtisodiy barqarorligini taʼminlashdan iborat. Xorijiy tajriba koʻrsatishicha, rivojlangan mamlakatlarda sugʻurta nafaqat xususiy manfaatlarni himoya qilish vositasi, balki ijtimoiy himoya tizimining muhim elementi sifatida ham faoliyat koʻrsatadi.

Sugʻurta faoliyati oʻzining koʻp qirrali xususiyatiga ega boʻlib, u investitsion faoliyat, risklarni boshqarish va ijtimoiy himoyani taʼminlash kabi funksiyalarni oʻz ichiga oladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi koʻrsatadiki, sugʻurta kompaniyalarining samarali faoliyati uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish, mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni oʻrnatish va xizmatlar sifatini doimiy ravishda oshirib borish talab etiladi.

Sugʻurta xizmatining sifati va samaradorligi koʻp jihatdan sugʻurta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi, professional kadrlar salohiyati va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasiga bogʻliq. Shu bilan birga, sugʻurta xizmatlari bozorining rivojlanishi aholining sugʻurta madaniyati va sugʻurtaga boʻlgan ishonchi bilan bevosita bogʻliqdir.

Sugʻurta munosabatlarining rivojlanishiga taʼsir etuvchi asosiy omillar sifatida quyidagilarni koʻrsatish mumkin:

davlatning sugʻurta sohasidagi siyosati va huquqiy-meʼyoriy baza;

mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi va moliyaviy bozorlarning holati;

aholining sugʻurta madaniyati va moliyaviy savodxonlik darajasi;

sugʻurta kompaniyalarining institutsional salohiyati va innovatsion faolligi;

xalqaro sugʻurta bozori bilan integratsiyalashuv darajasi.

Xorijiy tajriba tahlili shuni koʻrsatadiki, sugʻurta tizimining samarali faoliyat yuritishi uchun davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, sugʻurta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish, yangi sugʻurta mahsulotlarini joriy etish va raqamli texnologiyalardan faol foydalanish zarur.

## Adabiyotlar/Литература/References:


1. G.J.Jumayeva, R.X.Djalilov, R.I.Rashidov. Sugʻurta nazariyasi va amaliyoti. Vneshinvestprom nashriyoti. –T.: 2019, -B.9-11 (268)
2. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik / Toshkent moliya instituti.-Toshkent, 2011, -B.492 (712 b)
3. Safarov B.Sh., Taniyev A.B., Ayubov I.I. Moliya va soliqlar. Darslik. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022.-B.103 (428)
4. Maxmudov Dilmurod Rozmetovich. Sugʻurta bozorining professional ishtirokchilari tomonidan koʻrsatiladigan xizmatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish. Yuridik fanlari boʻyicha diss. (PhD) –Toshkent, 2018. –B.17
5. Abduturapova D.F. Sugʻurta munosabatlarini takomillashtirishning istiqbollari. Maqola. 2023-yil oktabr. №10-son https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.u
6. Oʻzbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi “Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida”gi qonuni. Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 24.11.2021-y., 03/21/730/1089-son

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 2 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).